

YOSHLARNING MUSTAQIL FIKRLASHINI SHAKLLANTIRISHDA TARIXIY TAFAKKURINI RIVOJLANTIRISHNING ROLI

R.A.Begmatov

Toshkent to'qimachilik va yengil sanoati instituti katta o'qituvchisi

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada yoshlarning mustaqil fikrlashini shakllanishida ular da tarixiy xotira, tarixiy tafakkurni rivojlantirishning roli va o'z mustaqil fikriga ega bo'lgan shaxsni shakllantirishning ahamiyati haqida qisqacha yoritilgan.

Kalit so'zlar: Tarixiy ong, tarixiy xotira, tarixiy tafakkur, tarixiy meros, mustaqil fikrlash.

АННОТАЦИЯ

В данной статье кратко рассматривается роль исторической памяти, развитие исторического мышления, а также важность формирования личности с собственным независимым мнением.

Ключевые слова: Историческое сознание, историческая память, историческое мышление, историческое наследие, самостоятельное мышление

ABSTRACT

This article briefly examines the role of historical memory, the development of historical thinking, and the importance of developing individuals with independent opinions.

Keywords: Historical consciousness, historical memory, historical thinking, historical heritage, independent thinking.

KIRISH

Mamlakatimizda yosh avlod tarbiyasi davlat siyosati darajasigiga ko'tarilib, ta'lim-tarbiya tizimini takomillashtirish, yosh avlodni bilimli har tomonlama barkamol etib voyaga yetkazish amalga oshirilayotgan islohotlarning mohiyatiga singdirildi. Kelajakda boshlangan ezgu ishlarni davom ettiradigan, O'zbekistonning mustaqilligini mustahkamlaydigan, jahon miqyosida uning nufuzi va obro'sini ko'taradigan avlodni tarbiyalash oldimizda turgan eng muhim vazifadir. Yurtboshimiz Sh.Mirziyoyev ta'kidlaganlaridek: "Tarixan qisqa muddatda qiyofasi tubdan o'zgargan, milliy va zamonaviy me'morchilik an'analari asosida qayta qurilgan, do'stu dushmanlarimizning havas-hasadini uyg'otgan shahar va qishloqlarda kim yashaydi, yurtimizning yerosti va yerusti boyliklarini qayta ishlayotgan sanoat korxonalarini kim boshqaradi, hosildor dalalar, noz-ne'mat manbai bo'lgan bog'-rog'lar, ming-ming chaqirim ravon yo'llar kimga xizmat qiladi,

katta xarajatlar hisobiga bunyod etilayotgan zamonaviy o'quv dargohlarida kimlar voyaga yetayapti, bugun katta hayot ostonasiga qadam qo'yishga shaylanayotgan yigit-qizlar katta mashaqqat va zahmatlar hisobiga bunyod etilgan moddiy va ma'naviy boyliklarning qadriga yetadimi, uni asrashga, ko'paytirishga qodirmi, degan savollarga aniq javob olish o'z mehnatlarining besamar ketmaganiga, irodasi mustahkam, imoni butun, muhimi, xalqiga sodiq va fidoyi avlod kamol topayotganiga ishonch hosil qilishning o'zi ham katta baxtdir." [1].

Vatanimiz tarixini o'rganish mamlakatimiz kelajagi bo'lgan yosh avlodni vatanparvarlik hissini shakllantirishda, xalqimizning bir necha ming yillik madaniy-ma'naviy merosini o'rganishda, ajdodlarimizning jahon sivilizatsiyasi va taraqqiyotiga qo'shgan ulkan hissasi bilan tanishtirishga, ular bilan faxrlanishga, milliy iftixor tuyg'usini shakllantirishga yordam beradi.

Yoshlarimizning mustaqil fikrini shakllantirish, tarixiy voqea va hodisalarni o'rganishi, tahlil qila olishi va to'g'ri xulosa chiqara olishi muhim vazifa hisoblanadi. Bu haqda Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyevning quyidagi fikrlarini keltirishimiz mumkin: "Men barchangizni tarixni o'rganishda yanada uyg'oq, yanada faol bo'lishga chaqirmoqchiman. Tarixga sergak qaragan odamgina doimo hushyor va ogoh bo'lib yashaydi. Bugungi vaziyatga ham, kelgusi jarayonlarga ham xolis va haqqoniy baho bera oladi. Bu esa hozirgi murakkab va shiddatli zamonda tinchlik va barqarorlikni ta'minlash, yuksak taraqqiyotga erishishning eng muhim shartidir" [2].

Tarixiy tafakkuri shakllangan, mustaqil fikriga ega yoshlarimiz siyosiy jihatdan yetuk yoshlar – jamiyat taraqqiyotining garovidir. Shaxsning sog'lom o'sib ulg'ayishi, uning intellektual rivojlanishi, jismonan sog'lom, ma'naviy yetuk, har tomonlama kamol topishi, jamiyatda o'z o'rniga ega bo'lishi va samarali faoliyat olib borishida tarixiy tafakkurning shakllanganligi muhim ahamiyat kasb etadi. Tarixiy tafakkurning shakllanganligi yoshlarni ertangi kunga ishonch bilan qarashga va faqat oldinga intilib yashashga undaydi. Tarixiy tafakkur, avvalo, talaba-yoshlarning dunyoqarashi, siyosiy va huquqiy madaniyati, fuqarolik pozitsiyasida namoyon bo'ladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METOD (LITERATURE REVIEW).

Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, shaxsning tafakkuri, uni rivojlantirish bosqichlari M.G. Davletshin, E. G'oziev, B. Kodirov, V. Karimova, Z. Nishonova tomonidan o'rganilgan bo'lsa, D. Sharipova, O. Musurmonova, M. Quronov, U. Mahkamov, Sh.A. Abdullayeva, Sh. Sharipov, B.X. Xodjayevlar yoshlarning ma'naviy-ma'rifiy rivojlanishida ongli tafakkur, tarixiy tafakkur, ma'naviy tafakkur masalalarini pedagogik nuqtai nazardan tadqiq etishgan. Respublikamizda tarix fanini falsafiy yondashuv asosida tadbiq qilish N. Jo'rayev tomonidan, tarix fanini

o'qitishning uslubi bo'yicha T. Toshpo'latov va Ya. G'afforovlar tadqiqotlarida o'rganilgan.

MUHOKAMA (DISCUSSION).

Tafakkur kishining subyektiv faoliyatiga taalluqli tushunchalari, nazariy qarashlari, g'oyalaridir. Tarixiy tafakkur esa retrospektiv informatsiyalar ta'sirida shakllangan tushunchalar, qarashlar, g'oyalar yig'indisidir. Tarixiy tafakkur tasodifiy hodisa emas, u avlodlar o'rtasida kechadigan aloqalar, ijtimoiy munosabatlar jarayonida shakllanadi va ushbu aloqalar, munosabatlar to'xtamaganidek, tarixiy tafakkurning shakllanish jarayoni ham, to inson umrining oxirigacha to'xtamaydi [3].

Tarixiy tafakkurning shakllanishi shaxsning o'tmish haqidagi bilimlar olishidan boshlanadi. Bilish, izlanish, mavjud tajribani o'rganish, kuzatish, umumlashtirish, xulosa chiqarish tarixiy tafakkur shakllanishining shartidir. Shu sababli tarixiy tafakkur yozma manbalar, qo'lyozma va obidalarni o'rganish orqali kerakli ma'lumotlarni izlaya olish, topa bilish va tahlil qilish ko'nikmasi, ijodiy izlanish va falsafiy mushohada salohiyatidir. Shu bois tarixiy haqiqatni dastlab tarixiy tafakkurga ega shaxslar – tarixchilar, ilm-ma'rifat ahli, mustaqil falsafiy mushohadaga moyil ijodkorlar biladi va ommalashtiradi.

Bu davrda jamiyatimizda ijtimoiy tafakkurning yuksalish tendensiyasi qaror topmoqda, unga xos ham milliy, ham umuminsoniy qadriyatlarning mujassamligi e'tirof etilmoqda. Milliy ruh va umuminsoniy qadriyatlar uyg'un bo'lgan ijtimoiy tafakkur – mamlakatimiz barqaror rivojlanishining mezoni va mustahkam poydevoriga aylanmoqda.

“O'zlikni anglash, eng avvalo, o'tmishni o'rganishdan, tarixni bilishga ehtiyoj sezishdan boshlanadi”, – deb yozadi N. Jo'rayev. – “Darhaqiqat, o'zini anglayotgan, o'zini tushunayotgan har bir odam qanday oilada dunyoga kelgani, o'z ajdodlari kim bo'lgani, ota-bobolari nimalar bilan shug'ullanishgani va qanday umr kechirganini bilib olishga intiladi. Ularning fazilatlarini va meroslari bilan faxrlanib yashaydi” [4].

Tarixiy tafakkur o'zlikni anglashning kafolatidir. Ma'lum bir bilimlarga, dunyoqarashga, voqea va hodisalar haqida mustaqil yondashuvlarga ega kishi o'zining jamiyatdagi, ijtimoiy muhitdagi o'rnini topishga intiladi. Tarixiy tafakkur, barcha ilmiy izlanishlar kabi, tanqidiy yondashish, bahs, munozara orqali shakllanadi. Ammo tanqidiy yondashish, R. Rahmonov va F. Fayziev yozganidek, “o'tmishni qora-lashga, kamsitish va soxtalashtirishga, yoxud uni ideallashtirishga olib kelmasligi kerak. Bunday hol ham milliy ong o'sishidagi biryoqlamalilikni ko'rsatadi. Tarixni, milliy madaniyatni va milliy xususiyatlarni ideallashtirish ilmiy haqiqatni izlash yo'lidagi biryoqlamalilikning ikkinchi tomonidir...”. Bu harakatlar o'tkinchi

bo'lsa ham, taraqqiyotning mas'uliyatli davrlarida yoshlarning ijtimoiy, tarixiy va milliy ongi, tarixiy xotirasi, dunyoqarashi noto'g'ri shakllanishiga olib keladi [5].

Darhaqiqat, yoshlarda tarixiy ong va dunyoqarashlarning noto'g'ri shakllanishi jamiyat taraqqiyotiga salbiy ta'sir ko'rsatib, ularning ongiga bizning ma'naviyatimiz, madaniyatimizga zid bo'lgan g'oyalarning kirib kelishiga sabab bo'ladi. Tarixiy ongda ikki, bir-biriga dialektik bog'liq yo'nalish mavjud: biri – o'tmishga, uni idrok etishga, undan tayanch qidirishga yo'naltirilgan. Real borliqdagi ziddiyatlar kuchayganda, hayot-mamot masalasi ko'ndalang turganida hal etilishi shart bo'lgan qaror, iroda, idealga ehtiyoj tug'iladi. Real borliqda yuzaga kelgan ziddiyatlar tarixiy tajribadan, o'tmishda qolgan an'analar va merosdan dalda, asos qidirishga undaydi. Bu esa ongni retrospektiv tajribani o'rganishga, undan o'ziga zarur informatsiya yoki ibrat topishga undaydi [5].

Bu esa tarix o'qitishni milliy asosga qurishni, xalqimizning mehnatsevarlik, hamkorlik, do'stlik, insonparvarlik, ozodlik va mustaqillik, ma'rifatparvarlik kabi an'analarini, imon, insof, mehr-oqibat, or-nomus, kattaga hurmat, kichikka muruvvat, mehmondo'stlik, Vatanga hamda xalqqa sadoqat kabi oliyjanob fazilatlarni chuqur o'rganishni, ularni yoshlar qalbiga singdirishni talab etadi. Shu asosda yoshlarning siyosiy ongi o'sadi, o'zligini anglaydi va Respublikamiz kelajagi uchun astoydil xizmat qiladi [6].

NATIJA (RESULTS)

Insonning mustaqil baholay olish qobiliyati murakkab ko'rinishga ega bo'lganligi sababli, tarix fani o'qituvchilarining ishida asosiy yo'nalishlardan biri talabalar mustaqil fikrlay olish qobiliyatini rivojlantirish hisoblanadi.

Zamonaviy ta'lim tizimidagi tarix fani o'qituvchilariga qo'yiladigan yuqori talab quyidagi fikrlarda o'z aksini topgan. Taniqli tarixchi-metodist olim A.I. Strajev shunday yozadi:

- birinchidan, tarixni ilmiy-metodologik jihatdan batafsil o'zlashtirib olmoq kerak;

- ikkinchidan, turli sohalar bo'yicha aniq tarixiy bilimlar bilan qurollangan bo'lmog'i kerak;

- uchinchidan, keng miqyosdagi umummilliy, umumbashariy dunyoqarashga ega bo'lmog'i kerak;

- to'rtinchidan, pedagogik va psixologik bilimlarni o'z ichiga olgan, mustaqil pedagogik fan va san'at sifatida shakllangan fan – tarix o'qitish metodikasi bilan har tomonlama qurollangan, zamonaviy tarix o'qituvchisiga xos sifatlar majmuining sohibi bo'lmog'i kerak [8].

Tajriba shuni ko'rsatadiki, talabalar tarixiy jarayonlarni sabr-toqat bilan mustaqil ravishda tinmay o'rganganidagina, ma'lum tarixiy davr haqida umumiy tushunchaga ega bo'ladilar. Bu esa ularning dunyoqarashining kengayishiga, o'zlari uchun ma'lum tarixiy saboq olib, xulosa chiqarish qobiliyatining shakllanishiga sabab bo'ladi.

O'qituvchi ma'ruza mashg'ulotlarida mavzuga doir darsliklarda ko'rsatilmagan qiziqarli ma'lumotlarni yetkazish va bu ma'lumotlarni olish mumkin bo'lgan adabiyot va manbalarni talabalariga yetkazish orqali ularni mustaqil ravishda qo'shimcha adabiyotlardan foydalanishga o'rgatishi zarur. Natijada talaba qiziqqan ma'lumotni topish jarayonida yangi bilimlarga ega bo'ladi. Shuningdek, talabalar uchun videoroliklar namoyish etish, muzeylarga, ziyoratgohlarga tashriflar uyushtirish orqali yangi qiziqarli tarixiy faktlar bilan tanishtirish ularning mustaqil izlanishiga sabab bo'ladi.

Talabalarda tarixiy tafakkur shakllanishida mustaqil ishlarni tashkil etish o'ziga xos muhim o'rin tutadi. Mustaqil ishlash metodlari, ayniqsa tarix o'qitishda, ta'limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi vazifalarni amalga oshiradi. Mustaqil o'z ustida ishlash talabalar tafakkuri, ko'nikma va malakalarining rivojlanishiga, jamiyatda va dunyoda kechayotgan jarayonlarga o'zining mustaqil munosabatini bildirishi va xulosalar chiqara olishi malakasining shakllanishiga yordam beradi. Shuningdek, talabalar dunyoqarashini kengaytirish, tarixiy jarayonlarni qiyosiy tahlil qilib, fikrlarini erkin bayon eta olish malakasiga ega bo'ladilar.

XULOSA (CONCLUSION).

Yoshlarda tarixiy tafakkurni shakllantirish ularni mustaqil fikrlash, tahlil qilish, o'z fikrini yetkazish, tashkilotchilik qobiliyatini rivojlantirishda muhim o'rin tutadi. Chunki tarixiy tafakkurga ega yoshlar jamiyatning ertangi kunini belgilovchi kuchga ega bo'lib, yurtimizning barqaror rivojlanishi, vatan ozodligi va obodligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Tarixiy tafakkuri shakllangan, mustaqil fikrga ega yoshlarimiz siyosiy jihatdan yetuk yoshlar – jamiyat taraqqiyotining garovidir. Shaxsning sog'lom o'sib ulg'ayishi, uning intellektual rivojlanishi, jismonan sog'lom, ma'naviy yetuk, har tomonlama kamol topishi, jamiyatda o'z o'rniga ega bo'lishi va samarali faoliyat olib borishida tarixiy tafakkurning shakllanganligi muhim ahamiyat kasb etadi. Tarixiy tafakkurning shakllanganligi yoshlarni ertangi kunga ishonch bilan

qarashga va faqat oldinga intilib yashashga undaydi. Tarixiy tafakkur, avvalo, talaba-yoshlarning dunyoqarashi, siyosiy va huquqiy madaniyati, fuqarolik pozitsiyasida namoyon bo'ladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI (REFERENCES):

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2021. – 150 b.
2. Mirziyoyev Sh.M. Niyati ulug' xalqning ishi ham ulug', hayoti yorug' va kelajagi farovon bo'ladi. – Toshkent: O'zbekiston, 2019, 3-jild. – B.147.
3. O'zbekistonda ijtimoiy-axloqiy va gumanistik fikrlar tarixining muhim bosqichlari. – Toshkent: Falsafa va huquq instituti nashriyoti, 2007. – B.18.
4. Jo'rayev N. Tarix falsafasi. – Toshkent: "Ma'naviyat", 1999. – B.19.
5. Rahmonov R., Fayziev F. Yoshlar dunyoqarashi shakllanishida tarixiy ong va tarixiy xotira. – Toshkent: "O'zbekiston", 2008. – B.45.
6. G'afforov Ya.X. Tarix o'qitish metodikasi. – Toshkent: "Ishonchli hamkor", 2021. – B.8.
7. Ochilova B. Shaxs ma'naviy kamolotida islohmandlik va ibrat birligi. – Toshkent: O'zbekiston, 2004. – B.69–70.
8. G'afforov Ya.X. Tarix o'qitish metodikasi. – Toshkent: "Ishonchli hamkor", 2021. – B.6.